

MIRG'YOSOV Mirabbos Ilyos o'g'li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
tadqiqotchisi

XITOIY VA O'ZBEKISTONNING TRANSPORT SOHASIDAGI HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

STRATEGIC DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF COOPERATION OF CHINA AND UZBEKISTAN IN THE FIELD OF TRANSPORT

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КИТАЯ И УЗБЕКИСТАНА В ОБЛАСТИ ТРАНСПОРТА

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xitoy Xalq Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi transport sohasida hamkorlikni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari tahlil qilingan. Yo'l qurilish, infratuzulmalarni shakllantirish, zamonaviy kam xarajat texnologiyalarni joriy qilish va approbatsiyadan o'tkazish, muxandislik va konstruktorlik bo'yicha Xitoy va O'zbekiston o'rtasida ilmiy yangiliklar bilan almashinish va ushbu sohada band bo'lgan olimlar, yosh izlanuvchilar va tadqiqotchilar, namunali va a'lo baholarda o'qib kelayotgan magistratura va bakalavriatura talabalari O'zbekistondan Xitoyning tegishli ilmiy tadqiqot institutlariga, etuk kompaniyalariga malaka oshirish uchun yuborish va shunga mutanosib ravishda Xitoyning yetuk olimlarini mamlakatimizga jalb qilish va xalqaro konferentsiyalar tashkil etish, seminar treyninglarni amalga oshirish yoki interaktiv muloqatlarni yo'lga qo'yish va boshqa tadbirlarni faol amalga oshirish va ularning tajribalarini o'rganish uchun sharoitlar yaratish va amalga oshirish transport sohasini yanada rivojlantirishga va uning zamonaviylashuviga hissa qo'shilishi aniq bo'ladi.

Калит сўзлар: Xitoy Xalq Respublikasi, hamkorlik munosabatlari, islohotlar, savdo aloqalari, iqtisodiyot, transport.

Аннотация. В данной статье анализируются стратегические направления развития

сотрудничества в сфере транспорта между Китайской Народной Республикой и Республикой Узбекистан. Обмен научными инновациями между Китаем и Узбекистаном в области дорожного строительства, формирования инфраструктуры, внедрения и утверждения современных малозатратных технологий, инжиниринга и дизайна, а также ученых, молодых исследователей и исследователей, занятых в этой области. обучение с образцовыми и отличными оценками из Узбекистана в соответствующие научно-исследовательские институты и зрелые компании Китая для обучения и соответственно привлечение в нашу страну зрелых китайских ученых и организация международных конференций, проведение семинаров-тренингов. Понятно, что создание и реализация условий для повышения или интерактивные диалоги и активное осуществление других мероприятий и изучение их опыта будут способствовать дальнейшему развитию транспортного сектора и его модернизации.

Ключевые слова: Китайская Народная Республика, сотрудничество, реформы, торговые отношения, экономика, транспорт.

Abstract. This article analyzes the strategic directions of the development of cooperation in the field of transport between the People's Republic of China and the Republic of Uzbekistan. Exchange of scientific innovations between China and Uzbekistan in road construction, infrastructure formation, introduction and approval of modern low-cost technologies, engineering and design, and scientists, young researchers and researchers engaged in this field. sending researchers, master's and bachelor's students who are studying with exemplary and excellent grades from Uzbekistan to relevant scientific research institutes and mature companies of China for training, and correspondingly attracting mature Chinese scientists to our country and organizing international conferences, conducting seminar trainings It is clear that the creation and implementation of conditions for increasing or interactive dialogues and active implementation of other activities and learning of their experiences will contribute to the further development of the transport sector and its modernization.

Keywords: People's Republic of China, cooperative relations, reforms, trade relations, economy, transport.

KIRISH

Bugungi kunda Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalar "Do'stlik, hamkorlik va

shariklik munosabatlari to'g'risidagi" shartnoma hamda "Strategik shariklik o'rnatish to'g'risidagi" qo'shma deklaratsiya ruhida barcha sohalarida rivojlanmoqda. O'zaro manfaatdorlikka asoslangan hamkorlik munosabatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik hamkorlikning ustuvor maqsadli vazifalari, shuningdek, ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy va gumanitar sohalarida ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid istiqbolli masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, o'zaro savdo aylanmasi barqaror o'sib borayotgani alohida e'tiborga molik.

O'zbek milliy avtomagistralini modernizatsiya qilish nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ulkan strategik ahamiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda, ushbu loyihani amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Arab Muvofiqlashtirish guruhi a'zolari singari xalqaro moliya tuzulmalari faol ishtirok etmoqda. Mazkur tashkilotlar tomonidan 742 kilometrlik avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish, yo'l qurulishi bo'yicha zamonaviy texnika sotib olish uchun 1 mlrd. 400 mln. dollarga yaqin imtiyozli kreditlar ajratilgan. So'nggi yillarda ushbu maqsadlar uchun 109 mln. dollar miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirilgan [1]

ASOSIY QISM

2013-yilda xalqaro standartlarga javob beradigan 526 kilometrlik avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish, qamchiq dovonida 71 kilometrlik avtomobil yo'li uchastkasida rekonstruktsiya ishlarini yakunlash, shuningdek, qator ko'prik va yo'lo'tkazgichlari barpo etilgan. Ushbu maqsadlar uchun 1 trln. 200 mlrd. so'm, shu jumladan, Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan 870 mlrd. so'mdan ortiq hamda xalqaro moliya institutlari tomonlaridan qariyb 120 mln. dollarga teng mablag'lari yo'naltirilgan [2]

Xususan, 2012-yilda tovar ayirboshlash hajmi qariyb 3,4 mlrd. AQSh dollari tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilning birinchi yarmida ushbu ko'rsatkich 2,3 mlrd. AQSh dollari tashkil etdi, ya'ni, ushbu ko'rsatkich 2012-yilning mos davriga nisbatan 59 foiz ko'p demakdir [3].

Izlanish va tadqiqotlarimiz natijasi sifatida aytish mumkinki, yuqoridagi boblarda biz bugungi kunda Xitoy iqtisodiyotining tobora rivojlanib borishida transport sohasining naqadar muhim vazifalarni bajarishini va uning bugungi kunda rivojlanishi, mubolag'a bo'lmaydi, bevosita bog'liqligi ham asoslab berildi. Xitoy iqtisodiyotining bugungi kundagi tobora rivojlanish tendentsiyalarining o'sib borishi bilan bir qatorda transport sohalarini ham ushbu jarayonlarga moslashishini talab qilmoqda. Bu borada bizga yaxshi ma'lumki Xitoyda transport sohasida barcha turlaridan samarali va maksimal tarzda foydalanilmoqdaki, unga mos ravishda hukumat tomonidan ushbu sohani rivojlantirish uchun turli xildagi ko'maklashish bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining tobora rivojlanib borish tendentsiyalarini ham inobatga olgan holda aytish mumkinki, iqtisodiyotimizning rivojlanib borish jarayoni bilan mos ravishda transport sohasini ham rivojlantirib borish asosiy mexanizmlaridan biri sifatida xizmat qilmog'i lozim.

Shu o'rinda ichki transport sohasini rivojlantirish iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan shahar aholisining ko'p qismi va poytaxtimizga kelganlar jamoat transportidan foydalanishi, biroq mazkur yo'nalishda to'la qulaylik ta'minlanmaganligi hamda so'nggi yillarda barpo etilayotgan yangi xonadonlar, shuningdek shaharlarning rivojlanishi jamoat transportini aholiga qulay, arzon va xavfsiz bo'lishi alohida ta'kidlandi [4].

Bir mamlakat ikkinchi bir mamlakat bilan iqtisodiy, ijtimoiy yoki siyosiy aloqadorliklarni o'rnatishda avvalo munosabatlarning ma'lum bir muddat o'tganidan so'ng rivojlanib borish jarayonlari tahlil qilinadi. Albatta kelishilgan xamkorliklarni tobora rivojlanib borish tendentsiyalari kuzatiladigan bo'lsa va uning yanada rivojlanish istiqbollari ko'riladigan va rejalashtiriladigan bo'lsa, mamlakatlar o'rtasidagi tanlangan soha yoki yo'nalishlar yuzasidan uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategik hamkorliklar shakllantiriladi va unda mamlakatlarning

xukumatlari doirasida imzolangan kelishuvlar asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Xitoy singari O'zbekistonda ham temir yo'llari, avtomobillar, havo yo'llari, metropoliten va boshqa turdagi transport vositalari faoliyatlari tobora rivojlanib bormoqda va bu borada Xitoyning tajribasini o'rganish va amaliyotga tadbiq qilish mexanizmlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

- Har yili Xitoy davlat byudjetining salmoqli qismi mamlakatning transport sohasini rivojlantirish uchun sarflanadi demak ushbu mablag'larning sarflanish manbalarini tadqiq etish, shuningdek ushbu xarajatlarning o'sib borish tendentsiyasini monitoring qilish va albatta xarajatlar bilan bir qatorda daromadlar manbaini ham tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tahlillarni amalga oshirish sababi bizga ma'lumki, umumiy ko'rinishda 2014-yilning 1 choragida Xitoy davlati byudjetining daromadlar qismi xarajatlar qismidan past ko'rsatkichni tashkil etgan. Jami xarajatlar ichida mart oyida transport uchun amalga oshirilgan xarajatlar 73,67 mlrd. yuanni tashkil etsa, bu tabiiy resurlardan foydalanish, energetika, axborot texnologiyalar, atrof muhitni himoya qilish, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va nashriyot hamda fundamental ta'lim va innovatsiyalardan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan va ushbu ko'rsatkich

2013-yilning mos davriga nisbatan 5,5%ga ko'pligini bildiradi [4]. Demak, bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Xitoy transport sohasini rivojlantirish uchun faqatgina investitsiyalarning boshqa manbalarini jalb qilishga bog'lanib qolmasdan, balki, davlat tomonidan ham ushbu sohani tobora rivojlantirishga davlat byudjetidan salmoqli mablag'lar sarf qilinmoqda.

- Transport sohasi xamisha xorijiy investorlar uchun jozibador hisoblangan sohalardan biri bo'lib kelgan ya'ni bu soha xorijiy investorlar uchun alohida reklama talab qilmaydigan sohalardan biri bo'lganligi bois, unga investitsiyalar kiritish istagida bo'lgan kompaniyalar juda ham ko'p, ammo investitsiyalarni ushbu sohaning qaysi yo'nalishlariga va qancha miqdorda jalb qilish imkoniyatlari mavjudligi, shuningdek investorlar uchun hukumat tomonidan yaratib berilgan sharoitlarni tadqiq etish albatta maqsadga muvofiqdir. Shuningdek bizga ma'lumki, Xitoy

bugungi kunda transport sohasini rivojlantirish uchun boshqa davlatlarga ham salmoqli investitsiyalar yo'naltirmoqda, jumladan, tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, so'nggi 20 yil ichida, salmoqli investitsiyalar Markaziy Osiyo davlatlarida transport infratuzulmasini rivojlantirish uchun sarflanmoqda, ayniqsa temir yo'llar va avtomobil yo'llari shular jumlasidandir.

- Transport sohasi innovatsion ishlanmalar va yangiliklarni o'z tajribasida faol qo'llaydigan va uning natijalari bo'yicha, ya'ni amaliyotda foydalanish imkoniyatlari bo'yicha aniq xulosalar shakllantiradigan soha hisobalanadi. Shu bois imkon qadar, transport sohasida zamonaviy texnologiyalarni faol qo'llagan xolda rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada Xitoyning tajribasini bevosita o'rganish maqsadga muvofiqdir albatta. Ma'lumki zamonaviy innovatsion texnologilar aksariyat xollarda ularning zamonaviyligi avvalo resurs tejamlorligi bilan baholanib kelinmoqda, bu borada demak asosiy maqsad kam xarajatlar talab qiladigan (rentabellik) va ayniqsa kam yoqilg'i talab qilinadigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va shu bilan birga ekologik nuqtai nazarda zararsiz va atrof muhitni ifloslantirmaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va bu borada albatta Xitoy tajribalarini faol o'rgangan xolda amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

- Mamlakatimizning transport tizimini takomillashtirish hamda uning tranzit salohiyatini yanada oshirish O'zbekiston iqtisodiyotini ravnaq toptirishning asosiy bo'g'inlaridan biriga aylanishi lozim. Bu transport ishi hajmlarining o'sishi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi multiplikativ samara bilan bog'liq holdagi O'zbekiston YalMini ko'paytirish ishiga muhim hissa bo'ladi. Bu borada loyihalashtirilgan ikki yo'nalish - Xitoy portlariga (Qozog'iston orqali tranzitli) - Sariq, Sharqiy Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlariga chiqish yo'li, ya'ni, O'zbekiston-Qirgiziston-Xitoy yo'nalishi hamda Eronning Bandar-Abbos va Choxbahor portlariga olib boradigan Afg'oniston orqali tranzitli janubiy muqobil transport yo'nalishlarini imkon qadar tez sur'atlar bilan ishga tushirish maqsadga muvofiqdir.

- Respublikamiz doirasida va xalqaro darajalarda transport sohasini rivojlantirishda asosiy omillardan biri bu raqobat muhiti hisoblanadi. Shuning uchun transport sohasida

raqobat muhitini tadqiq etish, shakllantirish va uni rivojlantirish masalalarini o'rganish va amaliyotda uni rivojlantirish bo'yicha tegishli chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada bizga yaxshi ma'lumki, deyarli barcha tarmoqlar bo'yicha bugungi kunda Xitoy ham ichki ya'ni mamlakat miqiyosida hamda tashqi bozorlarda juda kuchli raqobat kurashini olib boradi. Shu bois transport sohasida raqobat muhitini tadqiq qilish va raqobat kurashini shakllantiradigan omillarni o'rganish, Xitoyning transport sohasida raqobatbardoshligi omillarini o'rganish va uni O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi albatta maqsadga muvofiqdir;

- Ma'lumki, Xitoyda asosiy ijtimoiy va iqtisodiy muammolaridan biri bugungi kunda demografik sharoitining yildan-yilga keskinlashib borishidir, ya'ni, tobora o'sib borayotgan aholisini ish bilan ta'minlash masalalari deyarli birinchi darajadagi masalalardan biri hisoblanadi. Albatta ishsizlik masalasi barcha iqtisodiy rivojlangan va rivojlanib kelayotgan davlatlarda bir xildagi muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu xolatda olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat bermoqdaki yildan-yilga transport sohasida yangi ish o'rinlari faol tarzda yaratib kelinmoqda va bunga asosan bir qator omillar ta'sir etmoqda, jumladan, zamonaviy, yangi va transport sohasiga tutash sohalarning yaratilishi va eng asosiysi transportning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarga tobora bog'lanib borishi va transport sohasida yangi xizmat ko'rsatish turlarining yildan-yilga ko'payib borishi misol bo'la oladi.

Demak, Xitoy singari O'zbekistonda ham yildan-yilga malakali ish kuchining va yosh kadrlarning ko'payib borish tendentsiyasi kuzatilayotgani bois albatta Xitoyning transport sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish tajribasidan foydalanish, shuningdek, transport sohasida zamonaviy va yangi xizmat turlarini o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash aynan maqsadga muvofiqdir.

- Yo'l qurilish, infratuzilmalarni shakllantirish, zamonaviy kam xarajat texnologiyalarni joriy qilish va approbatsiyadan o'tkazish, muxandislik va konstruktorlik bo'yicha Xitoy va O'zbekiston o'rtasida ilmiy yangiliklar bilan almashinish va ushbu sohada band bo'lgan olimlar, yosh izlanuvchilar va tadqiqotchilar, namunali va

a'lo baholarda o'qib kelayotgan magistratura va bakalavriatura talabalari O'zbekistondan Xitoyning tegishli ilmiy tadqiqot institutlariga, etuk kompaniyalariga malaka oshirish uchun yuborish va shunga mutanosib ravishda Xitoyning etuk olimlarini mamlakatimizga jalb qilish va xalqaro konferentsiyalar tashkil etish, seminar treyninglarni amalgam oshirish yoki interaktiv muloqatlarni yo'lga qo'yish va boshqa tadbirlarni faol amalga oshirish va ularning tajribalarini o'rganish uchun sharoitlar yaratish va amalga oshirish transport sohasini yanada rivojlantirishga va uning zamonaviylashuviga hissa qo'shilishi aniq bo'ladi.

- Barcha turdagi transport yo'llarini (temir yo'llari, avtomobil yo'llari, havo yo'llarini) qayta ta'mirlash bo'yicha texnologik va muxandislik tajribalarini o'rganib borish va tadqiq etish maqsadga muvofiqdir;

- Yo'l harakati xavfsizligini amalga oshirish yuzasida Xitoyda ko'rilgan chora tadbirlarni o'rganish va O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini amalga oshirish va yo'l harakatida yuz beradigan avariya xolatlarini oldini olish yuzasidan amalga oshiriladigan chora tadbirlarni o'rganish;

Umuman olganda, Xitoy va O'zbekistonning transport sohasida xamkorlikni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini yanada takomillashtirish va amalga oshirish chora-tadbirlarini deyarli xar bir transport sohasida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu borada ham O'zbekistonda va ham Xitoyda imkoniyatlar etarli darajada desak xato bo'lmaydi, buning ustiga mamlakatlarimiz o'rtasidagi transport aloqalarini rivojlantirish bevosita iqtisodiy manfaatdorliklar bilan bir qatorda do'stona va siyosiy ahamiyatga ham ega va eng asosiysi qadimgi Buyuk Ipak Yo'lining tiklanishi va mustahkamlanishiga zamin yaratiladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olgan xolda va yuqoridagi boblarda mamlakatlarimizdagi transport sohasinining rivojlanishi keng qamrovli tahlili amalga oshirilganligini inobatga oladigan bo'lsak, fikrimizcha o'rinli bo'ladi, agarda mamlakatimizning Xitoy bilan xar bir transport sohasi bo'yicha strategik aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlari yanada chuqurroq tahlil qilinsa va ushbu imkoniyatlarni tahlil qilishga xarakat qilamiz, jumladan, temir yo'llar sohasida bugungi kunda Xitoy dunyo bo'yicha bir qator ko'rsatkichlari

bo'yicha birinchilikni qo'lga kiritgan va ushbu yutuqlar xali xanuz so'nggi ko'rsatkichlar bo'lib Xitoyning ushbu transport vositasini yanada rivojlantirishda to'siq bo'layotgani yo'q. Shu bois zamonaviy tez yurar va shu bilan birga kam xarajat temir yo'llarini ishga tushurish masalasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu borada Xitoyning temir yo'llari faoliyatini ikki guruxga alohida-alohida bo'lib takliflarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir, ya'ni, sanoat uchun xizmat qiluvchi yuklarni tashish temir yo'llari va aholini tashishga ixtisoslashga temir yo'llari faoliyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Sanoatga ixtisoslashgan temir yo'llarida bugungi kunda asosiy masalalardan biri bu xizmat ko'rsatishning tezlik ko'rsatkichlarini oshirish, energiya tejankor texnologiyalardan foydalanish, ishchi kuchini jalb qilishda samaradorliklarga erishish, shuningdek, transport sohasida raqobatbardoshlik omillarini yangi yo'llarini izlashdan iborat.

2. Aholini tashish uchun ixtisoslashgan temir yo'llarida asosiy omil bu transport sohasida raqobat kurashi omillarini o'rganish, yuqori tezlikda xarakatlanuvchi poezdlarda xizmat ko'rsatishning yangi turlarini o'rganish, xarajat turlarini tahlil qilish, shuningdek eng asosiysi bu, yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiluvchi omillarni va yangi yo'nalish sohalarini o'rganish va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Shuningdek, iqtisodiy masalalar qatorida mamlakatlarimiz o'rtasida eng qisqa temir yo'l tarmog'ini barpo etish o'zaro iqtisodiy hamkorlikning dolzarb strategik yo'nalishi sifatida belgilandi. Bu Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlariga, undan keyin Janubiy Osiyoga chiqishini ta'minlaydi. Albatta bu borada mamlakatimizda ham chuqur va tub islohatlar O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk davrlaridan boshlab amalga oshirib kelinmoqda va O'zbekiston Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li qurilishi ushbu fikrlarimizning isboti hisoblanadi.

Yo'lovchi va yuklarni ishonchli hamda uzluksiz tashishni ta'minlash maqsadida 2015-yilda 260 kilometr temir yo'llarni qayta tiklash ko'zda tutilmoqda. Sohada 13 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish mo'ljallanmoqda. 124,1 kilometrlik Angren-Pop elektrlashtirilgan yangi temir yo'lining qurilishi, 140 kilometrlik Maroqand-Qarshi va 325

kilometrlik Qarshi-Termiz temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish, ikki tomonlama qatnovga ega bo'lgan Jizzax-Yangier elektrlashtirilgan temir yo'l tarmog'i qurilishining ikkinchi bosqichini amalga oshirish kabi loyihalar shular jumlasidandir.

Mazkur yo'llar Xitoyning Janubiy Osiyo mamlakatlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqishi uchun imkoniyatini yaratadi. 2013-yilning iyun oyida "O'zbekiston temir yo'llari" DAK va Xitoyning "China Railway Tunnel Group" kompaniyalari o'rtasida dovondan tunnel orqali o'tadigan Angren-Pop temir yo'l liniyasini qurish bo'yicha umumiy qiymati 455 mln. AQSh dollarni tashkil etadigan shartnoma imzolanishi bilan xitoylik hamkorlar ishtirokida bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan.

Yana bir transport sohasini rivojlantirishning imkoniyatlaridan biri bu metropoliten sohasida hamkorliklarni rivojlantirish imkoniyatlaridir: ma'lumki Xitoy bugungi kunda yangi liniyalarni qurish bo'yicha etakchi davlatlardan biri hisoblanadi va uning ustuvorlik jihatlari shundan iboratki, Xitoyda yangi metroliniyalarni qurish va foydalanishga topshirish muddatlari qisqa hisoblanadi, shu bilan birga sifat jihatlari ham o'rnatilgan normalar doirasida yondashiladi. Ushbu ustuvorliklarni inobatga olgan xolda bu borada Xitoyning qisqa muddatlarda yangi liniyalarni qurishi va foydalanishga topshirish tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda barcha turdagi hamkorliklarning kengayishi mintqa davlatlari o'rtasida iqtisodiyotlarning ijobiy rivojlanishiga ta'sir qilishini belgilash lozim. Zero, u pirovard natijada iqtisodiy-ijtimoiy samaradorliklarning yanada rivojlanishiga xizmat qilmog'i lozim.

Hamkorlik natijasida tashqi transport va ichki savdo-transport ustamasi qisqarishi, tariflarning kamaytirilishi bilan qiyoslanganda bu aniq ko'zga tashlanadi. Zero, mintqa davlatlarining aksariyatida tariflar shundoq ham past va importga yirikroq to'siq - transport xarajatlari yuqoriligi va tashish vaqti noaniqligi yoki muntazam o'zgarib borishi ta'sir qilishi mumkin.

Milliy transport tizimlarining muvofiqlashtirilgan holda rivojlantirish, normativ-huquqiy asoslarni soddalashtirish va uyg'unlashtirish, xorijiy transport vositalari kirishiga va tranzitiga ko'maklashish, transport xizmatlari savdosini erkinlashtirish, davlat temir

yo'llar va havo yo'l transport kompaniyalarini qayta ta'mirlash borasida tajriba almashish va hkz. ko'rinishida transport sohasidagi o'zaro va qo'shni davlatlar bilan hamkorlik mintaqada davlatlari transport xarajatlari va tashish vaqtlarini qisqartirib, yetkazish vaqtini aniqroq qilgan bo'lar edi.

Transport qulayliklari — mamlakat rivojini ko'rsatuvchi va buni ta'minlovchi omillardan biri. Mamlakatda soha infratuzilmasi yangilanib, sharoitlar kengaytirilayotgani o'z natijalarini bermoqda.

Jumladan, aviatsiya bozori erkinlashgani hisobiga oxirgi uch yilda O'zbekistonga parvozlarni amalga oshirayotgan aviakompaniyalar soni 2 baravarga o'sgan. Avtomobilda xalqaro yuk tashishda mahalliy korxonalarning ulushi 62 foizga yetgan. 300 kilometr temiryo'l elektrlashtirilgan, 1500 kilometr avtomobil yo'li qurilgan[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan transport sohasi iqtisodiyotning qon tomiri transport va logistikani yangi bosqichga olib chiqmasak, iqtisodiyotning barqaror rivojini ta'minlay olmaymiz, — deydi Shavkat Mirziyoyev [6].

XULOSA

Albatta yuqorida bildirilgan fikrlar umumlashtiriladigan bo'lsa, aniq aytishimiz mumkin, bugungi kunda Xitoy va O'zbekiston davlatlari o'rtasida transport sohasini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan barcha xatti-harakatlar asrlar davomida mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona va teng manfaatli hamkorligimizning yana bir isboti hisoblanib ushbu aloqadorligimiz bugungi kunda tobora rivojlanib strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda va transport sohasining qaysi bir turini rivojlantirish bo'yicha ishlarning amalga oshirilidan qat'iy nazar ularning rivojlantirilishi bu zamon talabidir albatta va uning strategik maqsadi mintaqada mamlakatlarimiz o'rtasida hamkorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. 2012 йил ватанимиз таракқиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади//Халқ сўзи. 2012 йил 20 январь.
2. Каримов И.А. Бош мақсадимиз-кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш//Халқ сўзи. 2013 йил 19 январь.
3. <http://www.anons.uz/uz/index.phpmod=article&cat=Politics&article=4318>
4. <http://president.uz/oz/lists/view/2686>
5. <http://www.ved.gov.ru/files/images/country/China/2014/july/statet.pdf>
6. Shavkat Mirziyoyev transport va logistika sohasidagi kamchiliklarni sanab, qator topshiriqlar berdi // <https://daryo.uz/2022/09/28/shavkat-mirziyoyev-transport-va-logistika-sohasidagi-kamchiliklarni-sanab-qator-topshiriqlar-berdi>.